

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O’RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

“MAHBUB UL-QULUB” ASARIDA NABIYLAR OBRAZI

Gulfuza Madirimova

E-mail: gulfuzamadirimova@gmail.com

Tel: 99 729 92 06

Annotatsiya: Ushbu maqolada “Mahbub ul-qulub” asaridagi payg‘ambarlar timsollarini tahlilga tortilgan. Alisher Navoiyning bu obrazlar vositasida ifodalamoqchi bo‘lgan g‘oyaviy niyati va maqsadi o‘rganilgan. Asarda Odam alayhissalom, Nuh alayhissalom, Ibrohim alayhissalom, Ya’qub alayhissalom, Yusuf alayhissalom, Xizr alayhissalom, Ayyub alayhissalom, Sulaymon alayhissalom, Iso Masih alayhissalom kabi payg‘ambarlar nomlarining zikr qilinishi, bu timsollar orqali adib ifodalamoqchi bo‘lgan fikr-mulohazalar tadqiq qilingan.

Kalit so‘zlar. Obraz, timsol, payg‘ambar, nabiyl, zikr.

Аннотация: В данной статье анализируется символика пророков в произведении “Махбуб ул-кулуб”, изучение идеиный замысел и цель Алишера Навои которые он хочет выразить через эти образы. Исследовано упоминание имен таких пророков, как Адам, Ноин, Ибрахим, Якуб, Юсуф алейхисалам, а также идеи, которые писатель хочет выразить через эти символы.

Ключевые слова. образ, символ, пророк, воспоминание.

Annotation: In the article, the symbols of the prophets in the work “Mahbub ul-qulub” analyzed. The ideological intention and purpose of Alisher Navoi, which he wants to express through these images, has been studied. In the work, the mention of the name of prophets such as Adam, Noah, Ibrahim, Yaqub, Yusuf, Khizr, Ayyub, Sulaiman, Jesus Christ, and the ideas that the poet wants to express through these symbols are explored done.

Keywords. Image, symbol, prophet, remembrance.

Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asari obrazlar tizimi murakkab tarzda tuzilgan. Asarning qoliplovchi sujet va hikoya qiluvchi sujet qismidagi obrazlar bir-biridan tubdan farq qiladi. Asarning obraz va timsollar tizimini quyidagicha tahlil qilishimiz mumkin: 1.An‘anaviy obrazlar 2.Valiylar, shayxu avliyolar obrazlari 3.Yuqori tabaqa vakillari – podshoh va amaldorlar obrazlari 4.Ziyoli, ma‘rifatli kishilar obrazlari 5.Jamiyatdagi turli tabaqa kishilar obrazlari.

Alisher Navoiy she’riyatida ham, nasriy asarlarida ham bot-bot nabiylar obraziga murojaat qilgan. Tadqiqot obyektimiz “Mahbub ul-qulub” asarida ham payg‘ambarlar timsollariga duch kelamiz. An‘anaviy obrazlar – payg‘ambarlar timsollari asar badiiy qimmatini oshirishda, adibning g‘oyaviy niyatini yuzaga chiqarishda xizmat qilgan. Asarda Odam alayhissalom, Nuh alayhissalom, Ibrohim alayhissalom, Ya’qub alayhissalom, Yusuf alayhissalom, Xizr alayhissalom, Ayyub alayhissalom, Sulaymon alayhissalom, Iso Masih alayhissalom kabi payg‘ambarlar nomi zikr qilingan. Asarning na’t qismida Muhammad(s.a.v) ta’rifida adib shunday yozadi: “Va durudi nomadud ul mahbubi oqibat Mahmudg‘akim, Haq taolo anga qurb va manzilat

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSONI O’RGANISH MASALALARI”

mavzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

berdikim, olam va odam vujudidin maqsud aning vujudi erdi. Xujasta tiynati ruhi pokdin tohir va farxunda xilqati anosir tarkibidin pok erkani zohir. Anosirining yeli Masih anfosi va tufrog‘i Ya’qub ko‘zining to‘tiyosi va suyi Xizr chashmasining zuloli va o‘ti kalim daraxtining nori ishti’oli. Bu anosirni ruhi pok desa yeri bor va ruhiga ruhi fidok demak sazovor”. 1. Adib Muhammad(s.a.v) ta’rifida, Alloh taoloning odam zotini, hattoki, butun olamni yaratishdan murodi Muhammad alayhissalomni yaratish bo‘lganligini bayon qiladi. Bu yerda insонning to‘rt unsur – suv, havo tuproq, otashdan yaralganligiga ishora mavjud. Muhammad(s.a.v)ni yaratishda Alloh taolo Iso Masihning jonbaxsh nafasi, Ya’qub ko‘zini surtgan tuproq, Xizr chashmasidan olingan tiriklik suvi, kalim daraxti o‘tidan foydalanganligini bayon qilib, payg‘ambarni ulug‘laydi. Navoiy “Hayrat ul-abror” dostonining na’t qismida yuqoridagi fikrlarga hamohang shunday degan edi:

*Ey qilibon lam’ai nurung zuhur,
Andaki ne soya bor erdi, ne nur.
Nurungga tob ikki jahondin burun,
Harne yo ‘q andin burun, andin burun.*

Adib payg‘ambarga murojaat qilib, uning nuri zuhur topganda bu olamdan asar ham bo‘lmaganligini, ikki jahon – sayyoralaru, hatto jannat va do‘zax ham hali yaratilmaganligini juda teran ifoda qiladi. Payg‘ambar tug‘ilmasidan oldin uning nuri mavjud bo‘lganligini, olam yaralishidan oldin bu nur zuhur topganligini har ikki asarida ham juda ta’sirli bayon qilib bera olgan.

“Mahbub ul-qulub” asarining na’t qismida yana shunday yozadi: “Toyiri sidranishin Buroqi barqgomi va soyiri. Ruh ul-aminning ulvi xiromi. Aflok shabistoniyu zi bahoridin gulshan va maloiki uyuni raxshi g‘uboridin ravshan. Kalomi sha’nida “Va to yantiqu anil havo” va nutqi bayonida “in huva illo vahyun yuho”. Asrori ilohiga zoti amin va inoyat nomutanohdin oti “rahmat ul-olamin”. Adib payg‘ambarning Buroq ismli otini yettinchi osmonda yashindek tez yuruvchi, sayr qiluvchi qush deya ta’riflaydi. Qorong‘u osmon uning yu zi bahoridan go‘zallahgan, farishtalar uyi otining changidan nurlangan, Nabiyning so‘zlari ishq haqida bayon qiladi, nutqi vahiyidan boshqa narsa emas deya ulug‘laydi. Alisher Navoiy fikri yakunida nazmiy xulosa yasaydi va masnaviy keltiradi:

*Iki gisusi iki laylat ul-qadr,
Bu yanglig‘ iki layl ichra yu zi badr,
Laylu badr o‘lub sham‘i shabiston,
Uzoridin xo ‘y anda kavkabiston.
Bu kavkablardin aylab Tengri mavjud,*

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O’RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

Nubuvvat ma’shariga durri maqsud.

Nubuvvat sipehrida quyosh erkoni ma’lum,

Musohiblar sha’nida ashobi kannujum.

(Salovatullohi alayhi va alo olihi va ashobihi alo yavmid-dini). She’riy baytda adib payg‘ambarning sochini qadr kechasiga, yuzini esa tunni yoritgan oyga qiyoslaydi. Payg‘ambarlik osmonidagi quyosh ekanligini e’tirof qiladi.

“Mudarrislar zikrida” faslida, dars beruvchi muallimning so‘zi haqiqat bo‘lishi kerakligi, Haq ilmidan to‘g‘ri ta’lim berishi lozimligi haqida shunday mulohaza yuritadi: “Olim kerakkim, mutaqqiy bo‘lsa va ogoh va ayturga qola Olloh, qola Rasululloh.

Harne aytur bo‘lsa Xudovu Rasuldin

Andin so‘ng o‘lsa mujtahidu avliyo so‘zi.

Andin kishi ne kim eshitur va yoki o‘rganur

Bo‘lsa Xudo so‘zi yo‘q esa, Mustafo so‘zi”.

Bu yerda Navoiy mudarrislar Alloh kalomi va payg‘ambar hadislarini o‘quvchilarga to‘g‘ri yetkazishi lozimligini uqtiradi.

Asarning ikkinchi qismi “Sabr zikrida” bobida Xizr, Ayyub, Muhammmad(s.a.v) timsollari keltiriladi: “Yo‘li boidiyasida zulumoti ofat, Xizrdek ani qat qilg‘ong‘a bahra zuloli hayot. Shiddati yukiga homillardin biri Ayyubi nabiylar suubati hamlig‘a komillardin biri Muhammadi arabiy”. Bu yerda sabrga ega bo‘lish qiyinchiligi va yakunda esa mukofoti bo‘lishi bayon qilingan.

Asarning turli o‘rinlarida nabiyalar siymosi keladi. “Dehqonlik zikrida” faslida adib dehqonlarning mehnatkashligini ulug‘lab ko‘rsatarkan, ularni ilk dehqonchilik bilan shug‘ullanib, avlodlariga bu hunarni meros qoldirgan Odam Ato bilan qiyoslaydi: “Dehqonki, dona sochar, yerni yormoq bila rizq yo‘lin ochar. Agar rostliq va salohi bordur, o‘yi Solih noqasidin namudordur. Qo‘schi ham ikki zo‘r pahlavon, yukiga bo‘yun sunub olida ravon; ish qilurda hamdam va hamqadam, dehqon alarni suradi andoqki Odam”. Bu yerda Navoiy Odam Atoning jannatdan quvilgach, yer yuziga tushib, dehqonchilik bilan shug‘ullanganiga, Alloh taolo Odam Atoga dehqonchilikni o‘rgatganiga ishora qiladi. Solih payg‘ambarning toshdan tuya chiqarish karomatiga ham ishora mavjud. Dehqon tabaqasi vakillarini Odam Atoning haqiqiy izdoshlari deya e’tirof qiladi. “Mundoq dehqon Odamning farzandi xalafidur, balki marzuqlar anga farzand va ul Odami Safiydur”⁴ qabilida o‘ziga xos fikr bildiradi adib, ya’nikim, mehnatkash, xalqqa foyda keltiruvchi dehqon Odam alayhissalom xalifasi - o‘ribbosari deya ta’riflaydi. Ikkinchi jumlada bu fikrdan yanada kuchliroq e’tirof qiladi: dehqonni butun xalqning otasidur deydi, ya’ni insonlar otasi – Odam

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O’RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

alayhissalomga qiyoslanadi. Adib dehqon o‘z mehnati mahsuli – hosilini bilan butun xalqqa ulashishini nazarda tutib, uni xalq – insonlarning otasi deyishga haqli deb biladi.

Asarning uchinchi qismidagi o‘n yettinchi tanbeh “Vafo zaylida va hayo zikrida” deb nomlangan bo‘lib, Navoiy zamonasining bevafo insonlari qilmishlari va behayoligi jabridan qalbiga tikan sanchilganday azoblanayotganini shunday tasvirlaydi: “Zamon ahli bevafolig‘idin ko‘ksumda tunganlar va davron xayli behayoligidin bag‘rimda tikanlar, har qaysiga raqam uray desam, Ayub sabri vafo etmas va qalam suray desam, Nuh umrida tamomga yetmas”. Adib bu insonlar qilmishidan so‘z ochsa, Ayyub payg‘ambarning sabru toqati-yu, Nuh alayhissalomning umri ham kamlik qilishini, yetmasligini mubolag‘ali yo‘sinda bayon qiladi. Bilamizki, Nuh payg‘ambar eng uzoq umr ko‘rgan bo‘lib, adib bu yerda ming yil bevafo insonlardan bahs qilsa ham, oxiriga yetolmasligini juda go‘zal tasvirlaydi. Ayyub alayhissalom esa mumtoz adabiyotimizda sabr ramzi sanaladi, adib shunga ishora qiladi.

Ibrohim alayhissalom timsoliga “Rizo zikrida” bobida duch kelamiz: “Ravzai xuldidin ko‘p shod va do‘zax dudidin ko‘p tiyra nihod bo‘lg‘ay. Kalimulloh madhida mubolag‘a ko‘rguzmag‘ay. Xalilullohi ogoh bila Namrudi mardud arosida muxolafat eshgin rust ko‘rgay”. Bu yerda Xalilulloh deya Ibrohim alayhissalomning laqabi tilga olingan va solikning rizo maqomidagi holatini anglatish uchun Ibrohim alayhissalomning Namrud podshoh tomonidan o‘tga tashlanish voqeasiga ishora qilinadi.

Asarning uchinchi qismidagi beshinchi tanbehda manmanlik haqida adib mulohaza yuritadi va u insonni naqadar o‘ziga bino qo‘yishi sabab haqiqatni ko‘ra olmasligini shunday ifodalaydi: “Jamni holoti noxush xayoloti o‘ziga pisandida va raboyanda, mustahzan va xush oyanda ko‘rungay. Va ul qaboyihni yaxshi deb o‘kungay. Karih zot o‘zin Yusufi Kan’oniy degay”. Inson manmanlikka, kibrga berilgach, yomon fikrlari o‘ziga ma’qul, yoqimli va chiroyli ko‘rinishini, o‘z yaramasliklarini yaxshi deb maqtashgacha borishini, bu kabi xunuk bashara o‘zini dunyoda go‘zallik timsoli bo‘lmish Yusuf Ka’nonyiga tenglashtirishdan ham toymasligini ta’sirli jumllalarda bayon qiladi. Mumtoz adabiyotimizda Yusuf payg‘ambar tengsiz husn egasi bo‘lganligi bois, go‘zallik timsoli sifatida ifodalanadi.

“Atibbo zikrida” faslida bemorlarga da’vo ulashuvchi, shirinso‘z tabib Xizrga qiyoslanadi: “Xizri najot aning tal’ati va obi hayot aning sharbati” deya tabib davo sifatida beruvchi dorisi Xizrning tiriklik suvidek ekanligi, o‘zi esa Xizrdek najot bag‘ishlovchi bo‘lishi e’tirof qilinadi. “Vuzaro zikrida” faslida “Dahr elida birovki

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O’RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

Osafnihoddur, bilg‘aykim Sulaymon taxti barboddur” degan tasvir kelsa, “Atibbo zikrida” faslida “Hoziq tabibki shafqati bo‘lgay – Iso Ruhullohg‘a nisbati bo‘lg‘ay. Iso ishi chiqqon jonni tanga kivurmak duo bila, munung tandin chiqadurgon jonga mone’ bo‘lmoq davo bila”³ deya adib shafqatli tabibni o‘likka jon bag‘ishlovchi Iso Masihga o‘xshatadi. Bu yerda Masih nafasi tushunchasiga ishora kelgan. Iso Masihning nafasi hatto o‘lgan insonning jonini qayta tanaga kirgiza olgani hamda tabib davosi bilan inson hayotini saqlab qolishi o‘rtasida uyg‘unlik topadi adib. Asarning uchinchi qismidagi qirq sakkizinchiligi tanbehda adib so‘zlash odobi, yaxshi so‘z, yomon til mavzusida o‘z mulohazalarini bayon qilarkan shunday tasvirlar yaratadi: “So‘zdadur har yaxshiliqni imkonibor, munda debdurlarki, nafasning joni bor. Masihokim, nafas bila o‘lukka jon berdi, go‘yo bu jihatdin erdi. Ayn ul-quzot til sharafidin Masih guftor bo‘ldi va Husayn Mansur til sur’atidin dorga sazovor”. Navoiy so‘z orqali har qanday yaxshikni qila olish mumkinligini, chunki so‘zning ham ruhi bo‘lishini ishonarli ifodalaydi. Iso Masih nafasi bilan o‘likka jon baxsh etgani ham shu sababdan deya fikr bildiradi. Adib bu yerda o‘lgan qalbga shirin so‘z orqali qayta hayot bag‘ishlash mumkinligiga ishora qiladi. Mansur Xallojning dorga osilishiga sabab ham shu tili ekanligini bayon qiladi. Mansur Xallojning “Men Xudoman” deya aytgan gapini ilohiy ishqidan bebahra insonlar anglamasligi sabab uni ayblab, oxir-oqibat bu hodisa uning o‘limi bilan yakunlanishiga sabab ham uning o‘z tili demoqchi bo‘ladi Navoiy. Bu fikrlariga hamohang mulohazalarini asarning ikkinchi qismidagi “Zikr sharhida” bobida ham berib o‘tgan.

Xulosa o‘rnida aytadigan bo‘lsak, asar badiiy qimmatini oshirishda an’anaviy obrazlar – payg‘ambarlar timsollarining ahamiyati o‘ziga xos va juda katta ahamiyatga ega. Alisher Navoiy nabiylar siymosi orqali asarda ifodalamoqchi bo‘lgan g‘oyaviy niyatini yanada ta’sirchan, ishonarli chiqishiga erishgan. Alloh taolonning yerdagi elchilariga o‘z hurmat-e’tiborini badiiy yo‘sinda ifodalagan. Insonlar ruhiyatiga ularning pok ruhidan bir nur ularashishni maqsad qilgan. Odam alayhissalom, Nuh alayhissalom, Ibrohim alayhissalom, Ya’qub alayhissalom, Yusuf alayhissalom, Xizr alayhissalom, Ayyub alayhissalom, Sulaymon alayhissalom, Iso Masih alayhissalom kabi payg‘ambarlar zikri orqali adib fikr-mulohazalari yorqin, ta’sirchan aks etgan.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 20 jildlik. 17-jild. – Toshkent: Fan, 1997. 534 b.
2. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 20 jildlik. 7-jild. – Toshkent: Fan, 1991. 422 b.

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O’RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

3. Alisher Navoiy. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 20 jildlik. 16-jild. – Toshkent: Fan, 2000. 329 b.
4. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019. – 318 b.
5. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati. 4 tomlik. 1-jild. – Toshkent: Fan, 1983. 656 b.
6. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati. 4 tomlik. 2-jild. – Toshkent: Fan, 1983. 644 b.
7. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati. 4 tomlik. 3-jild. – Toshkent: Fan, 1984. 624 b.
8. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati. 4 tomlik. 4-jild. – Toshkent: Fan, 1985. 636 b.